Belarus Respublikasining ilg‘or ilmiy-innovatsion tajribalarini o‘rganish

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining bir guruh yosh olimlari Belarus davlatidagi ilmiy tadqiqotlar, fan va texnologiyalar, ta’lim, innovatsiyalar sohasida to‘plangan tajribalarni o‘rganish maqsadida ushbu respublikada ilmiy stajirovkada bo‘lib turishibdi.



O‘ylaymizki, u yerda o‘rganadigan ilg‘or tajribalar juda ko‘p. Keyinchalik yosh, iqtidorli olimlarimiz u yerda o‘rganilgan ilmiy tajribalari, olgan malaka va ko‘nikmalari asosida respublikamizning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shadilar.